

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР  
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ  
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН  
АКАДЕМИЯСИ  
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

**2024-1/3**

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна  
Издается с 2006 года**

**Хива-2024**

**Бош муҳаррир:**

*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.*

**Бош муҳаррир ўринбосари:**

*Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.*

**Таҳрир хайати:**

<i>Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.</i>	<i>Раззақова Сурайё Раззоқовна, к.ф.ф.д., доц.</i>
<i>Абдуллаева Муборак Махмусовна, б.ф.д., проф.</i>	<i>Раматов Бакмат Зарипович, қ/х.ф.н., доц.</i>
<i>Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.</i>	<i>Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.</i>
<i>Аззамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.</i>	<i>Раҳимов Матназар Шолмуротович, б.ф.д., проф.</i>
<i>Аимбетов Нағмет Каллиевич, и.ф.д., акад.</i>	<i>Раҳимова Гўзал Юлдашовна, ф.ф.ф.д., доц.</i>
<i>Аметов Яқуб Идрисович, д.б.н., проф.</i>	<i>Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.</i>
<i>Бабаджанов Хушнуд, ф.ф.н., проф.</i>	<i>Рўзметов Дилшод Рўзимбоевич, г.ф.н., к.и.х.</i>
<i>Бобожонова Сайёра Хушнудовна, б.ф.н., доц.</i>	<i>Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.</i>
<i>Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.</i>	<i>Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.</i>
<i>Буриев Ҳасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.</i>	<i>Сапарбаева Гуландам Машиариповна, ф.ф.ф.д.</i>
<i>Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.</i>	<i>Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.</i>	<i>Сафаров Алишер Каримджанович, б.ф.д., доц.</i>
<i>Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.</i>	<i>Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.</i>
<i>Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.</i>	<i>Собитов Ўлмасбой Тоғажамедович, б.ф.ф.д., к.и.х.</i>
<i>Исмаилов Исҳақжон Отабаевич, ф.ф.н., доц.</i>	<i>Сотипов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.</i>
<i>Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.</i>	<i>Тоғжибаев Комилжон Шаробитдинович, б.ф.д., акад.</i>
<i>Жуманов Мурат Арепбаевич, д.б.н., проф.</i>	<i>Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.</i>	<i>Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.</i>
<i>Қаландаров Назимхон Назирович, б.ф.ф.д., к.и.х.</i>	<i>Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.</i>
<i>Каримов Улдубек Темирбаевич, DSc</i>	<i>Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.</i>
<i>Курбанбаев Илҳом Жуманазарович, б.ф.д., проф.</i>	<i>Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.</i>
<i>Курбанова Саида Бекчановна, ф.ф.н., доц.</i>	<i>Эичанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Қутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.</i>	<i>Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.</i>
<i>Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.</i>	<i>Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.</i>
<i>Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.</i>	<i>Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.</i>
<i>Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.</i>	<i>Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.</i>
<i>Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.</i>	<i>Худайбергана Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.</i>
<i>Мирзаева Гулнара Саидарифовна, б.ф.д.</i>	<i>Худойбергана Ойбек Икромович, PhD, к.и.х.</i>
<i>Пазиллов Абдуваеит, б.ф.д., проф.</i>	

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№1/3 (110), Хоразм Маъмун академияси, 2024 й. – 154 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси



**МУНДАРИЖА  
ТАРИХ ФАНЛАРИ**

<b>Boltayeva M.J.</b> Sovet ittifoqi davrida o'zbek kinosi tarixidan	5
<b>Matrasulov L.Sh., Boltayev I.X.</b> Xiva xonligida davlat boshqaruvi va ijtimoiy hayot	7
<b>Mubinov M.A.</b> The study of the history of the Bukhara Emirate by european authors	10
<b>Saidjanova Z.K.</b> So'fi ta'rixlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari	13
<b>Tillayev D.O.</b> 1920-1924 yillarda Xorazm Xalq Sovet Respublikasi maorif tizimi	16
<b>Turayev A.S.</b> AQSHda neokonservativizm shakllanishi tarixi	19
<b>Xalilov B.Sh.</b> Jadidlarning ma'rifatparvarlik g'oyalarida erkin inson konsepsiyasi	21
<b>Zaripboyeva U.</b> Ibn Xavqalning "Kitob surat al-ard" asari va undagi o'lchov birliklari	24
<b>Аллабергенов Н.М.</b> Ўрта Осиёнинг илк ўрта асрлар тангалари ва улар талқинига доир мулоҳазалар	27
<b>Наврузов С.</b> Хонка ҳокими Аминбой Ҳожи Муҳаммад ўғлининг Ҳиндистонга элчилик сафари	31
<b>Нуруллаева Ш.К.</b> Музей фондлари ва экспонатлари – миллий кийим ва тақинчоқлар тарихини ўрганишда асосий манба сифатида	39
<b>Розимова Ё.Ю.</b> Орзу ва мақсад яқдиллиги – профессионал армия асоси	43
<b>Сапарбаев Б.Х.</b> Муҳаммад Раҳимхон I (1806-1825) даврида Хива хонлигида ирригация ва хунармандчилик соҳаларининг ривожланиши	45
<b>Салаев У.К.</b> Хоразм воҳаси Плейстоцен ва Голоцен даврида: Палеогеография ва палеоэкология масалаларига доир баъзи бир чизғилар	48
<b>Салаев У.К.</b> Қуйи Амударё худуди тош асри палеогеографияси шароитида этник муносабатлар тарихига оид баъзи бир мулоҳазалар	51
<b>Узоков Б.</b> Қадриятлар – фалсафанинг долзарб мавзуси сифатида	54
<b>Усманов М.Ш.</b> Философия новой редакции Конституции Узбекистана	56
<b>Худойкулов И.Б.</b> Қашқадарёда совет даври судларининг ташкил этилишининг тарихий натижалари	60
<b>Чарыева Д.А.</b> Исторические корни изучения туркменских народных диалектов	62
<b>ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</b>	
<b>Abulkhairov D.F.</b> Prospects for teaching foreign languages based on european competencies	65
<b>Akindikov N.B.</b> G'arbiy Yevropa adabiyoti namunalarini o'zbek maktablarida o'qitilishining ba'zi masalalari	69
<b>Aripova O.T.</b> Distinctive features of the formation of oral speech of students by teaching the turkish language	72
<b>Atakav I.R.</b> Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarbiya fani o'qitishni hozirgi kundagi mavjud holati	75
<b>Baxitjanova E.M.</b> The importance of multimedia educational tools in learning a foreign language	78
<b>Dusmurodova I.Q.</b> Methodology of the formation of oral speech and worldview of students	81
<b>Isakulova B.</b> The role of educational management in teaching english	83
<b>Istamova D.S.</b> Talabalarda kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	86
<b>Hamdamova Ch.H.</b> Xitoy tilida yozish ko'nikmasini tasvir va voqealashtirish usullaridan foydalanib qisqa bayonlashtirish	89
<b>Kosimova S.S.</b> Methodological achievements of a modern teacher in teaching a foreign language	91
<b>Mirbabayeva S.S.</b> Using of innovative technologies in learning english lessons for primary students	94
<b>Muxamatjonova D.R.</b> Benefits of translation theories to improve reading skill	96
<b>Norova B.Yu.</b> The use of modern technologies in the education system is a requirement of the time	99
<b>Nurmamatova F.I.</b> The role of reading articles in improving speaking skills	101
<b>Ochilova M.A.</b> Tuproq unumdorligi mavzusidagi dars mashg'ulotini interfaol usulda tashkillashtirishda pedagogik texnologiyalarning o'rni	104



Reading articles in different languages in general also cultivates consciousness, and also plays an important role in the study of culture, in expanding the worldview.

REFERENCES:

1. Irkinovna N. F. Teaching speaking through digital tools //Conferencea. – 2022. – C. 10-13.
2. Numamatova F. I. Some problems of teaching and learning english in different countries //Archive of Conferences. – 2022. – C. 5-6.
3. Numamatova F. Use of different methods and approaches in language teaching //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 125-127.

UO’K: 37.02.

**TUPROQ UNUMDORLIGI MAVZUSIDAGI DARS MASHG’ULOTINI INTERFAOL USULDA TASHKILLASHTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O’RNI**  
*M.A.Ochilova, o’qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tuproqshunoslik fani “Tuproq unumdorligi” mavzusini o’qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llash haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so’zlar:** tuproqshunoslik, tuproq unumdorligi, unumdorlik turlari, unumdorlikni qayta tiklash, pedagogik texnologiya, interfaol metod.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается использование современных педагогических технологий при преподавании предмета почвоведения «Плодородие почв».

**Ключевые слова:** Почвоведение, плодородие почв, виды плодородия, восстановление плодородия, педагогическая технология, интерактивный метод.

**Abstract.** This article discusses the use of modern pedagogical technologies in teaching the subject of soil science "Soil fertility".

**Keywords:** soil science, soil fertility, types of fertility, restoration of fertility, pedagogical technology, interactive method.

Tuproqshunoslik fani bakalavr yo’nalishida o’tilayotgan qishloq xo’jaligi yo’nalishidagi fanlar orasida asosiy o’rinni egallaydi. Bu fan tabiiy-tarixiy fan bo’lib, hozirgi kunga kelib, bu fanni o’qitish jarayonida turli pedagogic texnologiyalar orqali dars mashg’ulotlarini tashkillashtirish masalalariga e’tibor qaratilmoqda. Tuproqshunoslik fani tuproq, uning tarkibi xossalari, kelib chiqishi, geografik tarqalishi, tuproqdan unumli foydalanish usullari hamda unumdorlik va unumdorlikni oshirish yo’llarida haqida talabalarga o’rgatadi. “Tuproq unumdorligi” mavzusi tuproqshunoslik fani nazariy mashg’ulotlarida muhim o’rinni egallashini inobatga, bu mashg’ulotni o’qitish jarayonida turli interfaol usullar hamda zamonaviy pedagogic texnologiyalarni qo’llash orqali dars mashg’ulotini tashkillashtirish haqida so’z yuritmoqchimiz.

Tuproqning xossa va xususiyatlari unumdorlik ko’rsatkichlari bilan belgilanadi. Uning bu xususiyati tog’ jinslaridan farqlab turuvchi eng muhim belgisidir. Biz tuproqning unumdorlik xossasidan xalq xo’jaligida keng foydalanamiz. Chunki o’simliklarning o’sib-rivojlanishi uchun qulay sharoitni unumdor tuproqlardagina topa olamiz. Unumdor tuproq o’simliklarni zarur oziq moddalar, suv, havo, issiqlik bilan ta’minlaydi. Tuproqning ishlab chiqarish qobiliyati ham bevosita unumdorlik bilan belgilanadi.

O’simliklarning barcha o’sib rivojlanish hayotiy davrlari bevosita tuproqning turli xossalari yoki unda kechadigan jarayonlar bilan bog’liq. Shuning uchun ham tuproqdan foydalanilayotganda unumdorlikning barcha omillariga va shart-sharoitlariga bir vaqtning o’zida ta’sir eta bilish kerak.

Tuproq unumdorligi nisbiy tushuncha bo’lib, unumdorlik nafaqat tuproq xossalariga, balki o’stiriladigan ekinlar turiga ham bog’liq. Masalan, muayyan bir tuproq alohida o’simliklar uchun unumdor hisoblansa, boshqasiga kam unumli bo’ladi. Chunki har xil o’simliklarning tuproq unumdorligiga (faktorlariga) bo’lgan talabi bir xil emas.

Tuproqlarni madaniylashtirishning biologik, kimyoviy va fizikaviy usullaridan foydalaniladi.

Kimyoviy usul yerga mineral o’g’itlar solish yo’li bilan tuproqda o’simliklar uchun zarur va tez o’tadigan oziq elementlari miqdorini ko’paytirish hamda tuproqning kimyoviy xossalarini yaxshilashga qaratilgan.



Fizikaviy usullarga fizik-mexanikaviy va meliorativ tadbirlar qullanish ya'ni yerni ishlash, haydalma qatlamda agronomik jihatdan qimmatli struktura yaratish, tuproqning suv-fizik, issiqlik xossalari va rejimlarini yaxshilash singari tadbirlar kiradi.

Tuproq unumdorligining kengaytirilgan qayta, takror yaratilishi jarayonlari yuqori dehqonchilik madaniyati sharoitida, samarali va potensial samarali unumdorligining muntazam ravishda oshib borishiga bog'liq. Intensiv dehqonchilik sharoitida tuproq unumdorligining takror yaratilishi asosan ikki yul bilan, tuproqning moddiy tarkibini yaxshilash va texnologik usullardan samarali foydalanish orqali amalga oshiriladi. Birinchi usulga o'g'itlar va turli meliorantlardan, pestitsidlardan foydalanish hamda texnologik jihatdan qulay ekinlarni almashlab ekish, ikkinchisiga - yerga mexanik ishlov berish yuli bilan tuproqning fizik holatini yaxshilash singarilar kiradi. Konkret sharoitlarda bu usullardan to'g'ri va maqbul holda foydalanish zonal dehqonchilik sistemasining mazmunini belgilaydi.


Talabalarga ma'ruza mashg'uloti davomida tuproq unumdorligi va uning turlari haqida ma'lumotlarni yetkazish jarayonida turli metodlarning samaradorligi haqida fikr yuritimiz. Dastlab unumdorlik haqida "BBB" texnologiyasi metodi orqali talabalarning fikrlarini o'rganamiz. Bunda talabalarga og'zaki tarzda bu mavzu doirasida qanday ma'lumotlarni bilishini, nimalar haqida bilmoqchiligini o'rganib olamiz. So'ngra bu metod orqali dars yakunida qanday ma'lumotlarni o'rganganligi haqida ham bilishimiz mumkin bo'ladi. Bu metod quyidagicha ko'rinishda:

Bilaman	Bilmoqchiman	Bilib oldim

Masalan, talabalar albatta "Tuproq unumdorligi" haqida biologiya, botanika yoki geografiya fanlari doirasida qandaydir ma'lumotlarni bilishadi. Bilmoqchi bo'lgan qiziqarli ma'lumotlari haqida va ular turli manbalardan o'rgangan tuproq unumdorligini kimyoviy yo'llar bilan oshirish haqida aytishadi. Bu metodni dars jarayonida qo'llashdagi asosiy yutuqlar quyidagicha:

- ma'lumotlarning takror bo'lishini oldini olish;
- talabalarga qisqa vaqt ichida mavzu mazmunini tushuntirish;
- talabalarni diqqatini jamlashga yordam berish;

Tuproq unumdorligi turlari haqidagi qismni o'qitishda klaster metodidan foydalanamiz.



«Tarmoqlar» metodi (Klaster) bu fikrlarning tarmoqlanishi – bu pedagogik texnologiyalar qatoriga kirib, u o'quvchilarni biron bir mavzu ya'ni (Tuproq unumdorligi va uning turlari)ni chuqur o'rganishlariga yordam berib, o'quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'lagan holda tarmoqlashlariga o'rgatadigan usul. Bu metodning vazifasi biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda o'quvchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida bir tushuncha atrofida ifodalashga undaydi.



Tuproq unumdorligini tabiiy, sun'iy, potensial, effektiv (samarali), nisbiy va iqtisodiy unumdorliklar kabi turlarga ajratamiz.

**Tabiiy unumdorlik** bu insonlar qo'li tegmagan tabiiy holatdagi tuproqlar uchun xarakterli unumdorlik hisoblanadi.

**Sun'iy unumdorlik** insonlarning maqsadli faoliyati (yerni haydash, unga davriy ravishda mexanikaviy ishlov berish, melioratsiyalash, o'g'itlardan foydalanish singarilar) ta'sirida yuzaga keladi.

**Potensial unumdorlik** - tabiiy tuproq hosil bo'lish jarayonlari natijasida paydo bo'lgan xossalar va shuningdek insonlar faoliyati ta'sirida yaratilgan yoki o'zgartirilgan tuproq xususiyatlari bilan belgilanadigan barcha unumdorliklar yig'indisidan iborat.

**Effektiv (samarali) unumdorlik** - muayyan iqlim va texnik-iqtisodiy (agrotexnologik) sharoitda ekinlardan hosil olish uchun tuproq potensial unumdorligining foydalaniladigan qismi hisoblanadi. Bu unumdorlik hozirgi vaqtda olinadigan hosil miqdori bilan ifodalanadi. Demak, hosildorlik miqdori samarali unumdorlikning asosiy ko'rsatkichi va konkret ko'rinishidir.

**Nisbiy unumdorlik** - muayyan gruppaga yoki turdagi o'simliklarning tuproq unumdorligiga nisbatan bo'lgan munosabati (talabi) bilan belgilanadi. Bir turdagi o'simliklar uchun unumdor hisoblangan tuproq, boshqasiga yaroqsiz bo'lishi **mumkin**.

**Iqtisodiy unumdorlik** - tuproqning potensial unumdorligi va yer uchastkalarining iqtisodiy xarakteristikasiga ko'ra tuproqlarni iqtisodiy jihatdan baholashdir.

Bundan tashqari tuproqshunoslik fanlarini o'qitishda "Muammoli vaziyat" metodini qo'llash samarasi haqida fikr yuritmoqchimiz.

"Muammoli vaziyat" metodi bu ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

Muammoli vaziyat metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. O'qituvchi Tuproq unumdorligi mavzusi bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammoli bayon qiladi.

2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

3. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.

4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.

5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to'g'risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.

6. Muammoli yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo'llarini ishlab chiqadilar.

7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta'lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

Tuproq unumdorligi mavzusida bu metodni qo'llashda o'qituvchi o'quvchilarga muammoning kelib chiqish sabablariga e'tiborli bo'lish, ya'ni tuproqning unumdorlik xossasi, uning paydo bo'lishi, yo'qotilishi hamda qayta tiklash jarayonlari haqidagi bilim, ko'nikma va malakalariga tayangan holda o'quvchilarni yo'naltiruvchi, yodga soluvchi va ma'lumot beruvchi savollar orqali masalani hal etishga yo'llash kabi natijalar kutiladi.

"Muammoli vaziyat" metodining Tuproq unumdorligi mavzusida qo'llash va tavsiyalar

Muammoli vaziyat turi	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari
Tuproq tarkibidagi gumus miqdorini qanday oshirish mumkin?	- tuproq tarkibidagi gumus miqdorini aniqlash; - tuproq tarkibidagi gumus miqdori bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari kam tashkil qilinganligi;	-ilmiy asos yaratish; - ilmiy tadqiqot ishlarida tuproq tarkibidagi gumus miqdorini aniqlashga ko'proq e'tibor qaratish;



Tuproq organik moddasi va uning tuproq unumdorligiga ta'siri qanday?	- tuproq tarkibida mineral va organik o'g'itlarning yetarli emasligi; - agrotexnik tadbirlarni noto'g'ri tashkil qilinganligi; - tuproq unumdorligini oshirishda mulchalashdan kam foydalanilganligi; - tuproq unumdorligini oshirish uchun yangi texnologiyalarni yaratilmaganligi.	- moddiy-texnika bazasini takomillashtirish; - agrotexnik tadbirlarni to'g'ri joriy qilish; -tuproq unumdorligini oshirish uchun har xil materiallar bilan tuproqlarni mulchalash; -tuproq unumdorligini oshirish uchun yangi texnologiyalarini yaratish.
--	---	--

**“Blis-so‘rov” metodi**

**Metodning maqsadi:** talabalarda tezlik, axborotlar tizimini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maqsadida qo'llash samarali natijalarni beradi.

**Blis so'rovnoma**

	<b>Tuproq unumdorligi haqida nimalarni bilamiz?</b>
--	---

	<b>Tuproq unumdorligiga ta'sir etuvchilar omillar haqida gapiring?</b>
--	--

	<b>Tuproq unumdorligini yaxshilash chora tadbirlarini ayting?</b>
--	---

Tuproqshunoslik fanlarini o'rganish jarayonida ilmiy tushunchalarni rivojlantirish uchun pedagogik texnologiyalarni amalga oshirish uchun qo'llaniladigan barcha shakl va vositalardan interfaol usullardan foydalanish ta'lim sifati va samaradorligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, tuproqshunoslikni o'qitishda amaliy mashg'ulotlarni ham interaktiv metodlar asosida o'tish samarali natija beradi. Talabalarga fanni ba'zi mavzular bo'yicha darslar elektron vositalar yordamida tashkil etish esa fanni o'zlashtirish uchun o'qitishning ilg'or zamonaviy usullaridan foydalanish yangi interaktiv-pedagogik texnologiyalarini tadbiq etish muhim ahamiyatga ega. Bu o'qituvchi vaqtini tejashga imkon beradi va natijada ta'lim jarayonida samaradorlik qo'lga kiritiladi. O'quv jarayonini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishning asosiy vazifalari talabalarining intellektual salohiyatini ko'tarish, aqliy mehnatni ilmiy asosda tashkil etish, ta'lim- tarbiyada optimal variantlarni kafolatlashlardan iborat.

**Xulosa va tavsiyalar.** Tuproqshunoslik fanini o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib yuqori ilmiy pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va multimediali vositalardan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishlarga jalb qilish esa ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi.

1. “Tuproq unumdorligi” mavzusini zamonaviy pedagogik texnologiyalardan (interfaol metodlar), axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitish zarur. Bu talabalarning bilimlarini oshirish, nazariy va amaliy ko'nikmalar hosil qilish hamda darsning samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi;

2. Mavzuni o'qitishda talabani mustaqil fikrlashga o'rgatish, o'z ustida ishlash va bilimni mustahkamlab, amalda qo'llay olishga o'rgatish pedagogning eng muhim yutug'i hisoblanadi;

3. Talabalarga nazariy bilim berish bilan bir qatorda ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda ularda amaliy ko'nikmalarni hosil qilish - olingan bilimni mustahkamlashga xizmat qiladi;

4. “Tuproq unumdorligi” mavzusini o'qitishda muammoning sabablari va kutilayotgan natijalarni, oldini olish chora - tadbirlarini chuqurroq o'rgatish talab qilinadi;

5. Bu mavzu yuzasidan olingan nazariy bilimlar asosida talabada muammo yechimini



topish imkoni yaratiladi;

6. Ushbu mavzu ishlanmasini o'qitishning texnik vositalaridan foydalangan holda o'tish tavsiya qilinadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Abdullayev H.A., Tursunov L.T. Tuproqshunoslik asoslari. T-1994y
2. Xoliqulov Sh., Uzoqov.P., Boboxo'jayev I. Tuproqshunoslik. T-2013y
3. Avliyoqulov X.A., Musayeva N.N. „Pedagogik texnologiya” T-2012y
4. Tojiyev U., Namozov X., Nafetdinov Sh., Umarov K. „O'zbekiston tuproqlari” T- 2004y
5. Ochilova Muyassar Alisher qizi – “Tuproq kesmasi” mavzusini o'tishda klasster metodidan foydalanish” Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. 2023-2/3. 114-117 betlar.
6. Ochilova Muyassar Alisher qizi – “Tuproqning morfologik belgilari mavzusini o'tishda klaster metodidan foydalanish” Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. 2023-5/3. 204-207 betlar.
7. Ochilova M.A. Application of modern pedagogical technologies in the teaching of soil science in the higher education system//International scientific-practical conference actual issues of agricultural development: problems and solutions. June 6-7, 2023. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8004140>. 806-809 betlar.

UO'K 372.882

**ADABIY TA'LIMDA NAZARIY MA'LUMOTLARDAN FOYDALANISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

*N.J.Oromova, o'qituvchi, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Qarshi*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim tizimida adabiyot o'qitishda nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda janr xususiyatlarini inobatga olib tayyorlangan takliflardan foydalanish, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ko'rgazmali vositalar, illyustratsiya materiallari, audio va video materiallar, nazariy bilim, amaliy ko'nikma, folklor, xalq og'zaki ijodi namunalari, yangi pedagogik texnologiyalar, o'qish savodxonligi, mustaqil fikrlash.*

**Аннотация.** *В данной статье рассматривается использование предложений, разработка предложений и рекомендаций с учетом особенностей жанра в развитии теоретических знаний и практических навыков при преподавании литературы в системе общего среднего образования.*

**Ключевые слова:** *Наглядные пособия, иллюстративные материалы, аудио- и видеоматериалы, теоретические знания, практические навыки, фольклор, образцы народного устного творчества, новые педагогические технологии, грамотность чтения, самостоятельное мышление.*

**Abstract.** *This article reflects on the use of prepared proposals, the development of proposals and recommendations, taking into account the features of the genre in the development of theoretical knowledge and practical skills of folklore in the secondary special education system*

**Keywords:** *visual tools, illustration materials, audio and video materials, theoretical knowledge, practical skills, folklore, samples of folk oral creativity, new pedagogical technologies, reading literacy, independent thinking*

Umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishda nazariy ma'lumotlarni qay usulda, qanday hajmda taqdim qilish masalasi asosiy muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Bu borada Q.Husanboyeva adabiyotning bilim berishdagi vazifasi uning estetik funksiyasidan keyin turishini ta'kidlar ekan, masalaga quyidagicha yondashadi: “Adabiyotni chinakam o'zlashtirish badiiy so'z go'zalligini his qilish va undan zavqlanish orqali sodir bo'ladi. San'atning har qanday turidan zavq olish uchun badiiy bilimdonlik zarur, albatta. Lekin badiiy bilimdonlikning o'zi ham maqsad emas. Bunday bilim san'atdan zavq olish bilan axloqiy barkamollik, o'z-o'zini tarbiyalash, ma'naviy kamolotni ta'minlash yo'lidir” [1].

Badiiy bilimdonlik asarni teran tushunishga yordam beradi. Nazariy ma'lumotlar, adabiyot nazariyasining ta'limdagi ahamiyati haqida olimlar o'z munosabatlarini bayon qilishgan. Bu borada professor Q.Yo'ldoshev “Endilikda adabiyot nazariyasi bo'yicha beriladigan bilimlar ham o'quvchilar tafakkurini sinash va uni qiynash vositasi emas, balki badiiy asarni o'qish va tahlil etishga